

XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA FARG‘ONA VODIYSI

Muxitdinova Nodira Azimbekovna

Toshkent shahar Uchtepa tumani 203-maktab tarix o‘qituvchisi

muhiddinovanodira1974@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada Qo‘qon xonligini tugatilib, uning o‘rnida Turkiston general-gubernatorligi takibida Farg‘ona viloyati tashkil etilishi, vodiyning sanoat mahsulotlari uchun katta bozorga aylanishi va tez suratlarda bilan o‘sib borayotgan metropoliya yengil sanoati uchun xomashyo manbaiga aylanishi kabi masalalar tahlil qilingan. Ijtimoiy-iqtisodiy hayotdagi o‘zgarishlar mahalliy aholining turmush tarziga ta'sir etgan jihatlar ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: Qo‘qon xonligini, Turkiston general-gubernatorligi, Farg‘ona viloyati, metropoliya, xomashyo, paxta, mahalliy aholi, mustamlaka ma'muriyati.

LATE XIX AND EARLY XX CENTURY FERGANA VALLEY

Annotation: The article analyzes such issues as the abolition of the Kokand Khanate and the creation in its place of the Fergana region under the control of the Turkestan Governor-General, the transformation of the valley into a large market for industrial goods and a rapidly growing metropolis as a source of raw materials for light industry. Changes in socio-economic life revealed aspects that influenced the way of life of the local population.

Key words: Kokand Khanate, Turkestan Governor General, Fergana region, metropolis, raw materials, cotton, local population, colonial administration.

1876 yilda Qo‘qon xonligi davlat sifatida tugatilib, uning o‘rnida Turkiston general-gubernatorligi takibida Farg‘ona viloyati tashkil etildi. Aynan shu davrdan boshlab ijtimoiy-iqtisodiy hayotda vodiy ahamiyati yanada oshdi. Farg‘ona viloyati

sanoat mahsulotlari uchun katta bozor bo‘lish bilan bir vaqtda tez suratlar bilan o‘shib borayotgan metropoliya yengil sanoati uchun xomashyo manbaiga aylandi. Farg‘ona viloyatining Markaziy Rossiya bilan mahsulot ayirboshlashi va savdo aylanmasi tinimsiz o‘shib bordi. Tashqi savdo – paxta, pilla, ipak, meva va turli xom ashyolar yetkazib berish hajmi 100 million rubldan oshdi. XX asr boshida ichki savdoda Rossiyadan Farg‘ona bozorlariga kiritilgan mahsulotlar qiymati esa 200 million rublga yetdi [1].

Turkiston general-gubernatorlining beshta viloyatlari orasida Farg‘ona viloyati o‘ziga o‘ringa ega edi. Qayd etib o‘tilgandek, mustamlaka davrida Rossiya yengil sanoati uchun Farg‘ona viloyati asosiy paxta yetishtirib beruvchi markazga aylandi. XIX asrning 80-yillaridan boshlab Turkiston olkasi viloyatlari ma'lum turdagi qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirishga ixtisoslashtirib borildi. Jumladan, Farg‘ona vodiysi hududining katta qismida, asosan, paxta yetishtirildi. Buning oqibatida vodiya asosiy oziq-ovqat mahsuloti bo‘lgan bug‘doy Rossiyadan hamda qisman Sirdaryo va Samarqand viloyatlaridan keltiriladigan bo‘ldi. Vaholanki, xonlik davrida Farg‘ona vodiysi aholisi o‘z ehtiyojlari uchun zarur bo‘lgan bug‘doy va boshqa oziq-ovqat mahsulotlarini asosan o‘z yerlarida yetishtirishgan. XX asr boshlariga kelib Farg‘ona viloyati uyezdlari bo‘yicha yetishtirilgan don mahsulotlarining umumiy miqdori aholining faqat bir qismining ehtiyojini qondirishga yetar edi, xolos.

Viloyat bo‘yicha lalmi yerlardan 5.118.818 pud bug‘doy (umumiy qiymati 9.343.519 rubl) olingan. 1904 yilda esa viloyatda 3.425.000 pud g‘alla yetishtirilgan[3].

1914 yilda, ya'ni Birinchi jahon urushi arafasida Farg‘onaga Rossiya, Samarqand va boshqa viloyatlardan 12015 ming pud g‘alla olib kelindi[4]. Ammo, butun Turkiston o‘lkasida bo‘lgani singari, bu ko‘rsatkich viloyatda g‘allaga bo‘lgan talabni qondirmasdi.

Turkistonda mustamlaka tartiblari o‘rnatilganidan so‘ng ichki bozorni bo‘ysundirish jarayoni kuchaydi. Viloyat va shaharlar orasida savdo aylanmasi sezilarli darajada o‘shib Toshkent shahrining Farg‘ona, Yettisuv, Sirdaryo viloyati va Buxoro bilan savdo aylanmasi kengayib, mahsulotlar salmog‘i ham oshdi.

Farg‘onadan Toshkentga paxta, ipak, ho‘l va quritilgan meva kabi mahsulotlar va xom ashyo keltirilgan. Ayni paytda, Toshkentdan Farg‘onaga tayyor gazlama, yigirilgan ip, teri va temir mahsulotlari jo‘natilgan. Albatta bu hola mahalliy aholining ijtimoiy-iqtisodiy va moddiy sharoitining yaxshilanishiga xizmat qilgandek taassurot uyg‘otadi amalda esa buning aksi kuzatiladi.

Turkiston o‘lkasi va uning tarkibiy qismi bo‘lgan Farg‘ona viloyati aholisining tashvishlari mustamlaka hukmron doiralarini unchalik tashvishga solmagan. Vodiya paxtachilikni rivojlantirish uchun hukumat Rossiyadan g‘alla keltirish qimmatga tushsa ham o‘lka xalqlarining rus doniga qaramligini doimiy ravishda saqlab qolishdan manfaatdor edi. Turkiston dehqonlarini dalalarda nuqul g‘o‘za yetishtirishga majbur etish va bu borada doimiy ravishda ish olib borish zarurligi metropoliya markazidan turib alohida uqtiriladi va shu yo‘nalishda izchil faoliyat yurgiziladi[5].

Ijtimoiy-iqtisodiy hayotdagi o‘zgarishlar mahalliy aholining turmush tarziga ham ta'sir etgan. Jumladan, bu o‘zgarishlar mahalliy aholiga Farg‘ona viloyati O‘sh uyezdi g‘aznachisi o‘z bildirgisida uyezd pristavi shtabs-kapitan N.Ilyashenkoning mahalliy aholi vakillarini tahqirlab, haqoratlaganligi to‘g‘risida axborot beradi[6]. Axborotda keltirilishicha, maosh olish uchun binoga kirgan pristav bu yerda soliq to‘lash uchun navbatda turgan qariyaga turtilib ketadi. Egallab turgan lavozimidan kekkayib, o‘ziga haddan tashqari bino qo‘ygan N.Ilyashenko qariyani markalar sotiladigan xonaga olib kirib, bo‘lmag‘ur so‘zlar bilan haqorat qilgan. Xazinabonning ta'kidlashicha, qariyaning turtilib ketishiga yo‘lakchanning torligi sabab bo‘lib, pristav bunda qariyaning hech qanday aybi yo‘qligini tushunishni istamagan.

Qo‘qon shahri pristavi V.Tushmanov Xo‘ja Salim Temirov degan kishini hech qanday sababsiz qamab qo‘yib, keyin uni 100 rubl evaziga ozod qilgan. Aynan shu pristav yuzlab kishilarga turli miqdorda jarimalar solib, jarima undirilganligi to‘g‘risida biron-bir hujjat bermagan. Mahalliy aholi vakillarining bergan guvohligiga ko‘ra, V.Tushmanov ommaviy ravishda turli jarimalar uyushtirganligidan tashqari, pasport olish uchun 6 rubldan 10 rublgacha haq talab qilgan[7].

Qaynar volosti pristavi Klasskovskiy esa ellikboshi Fozilboy Obitboyev bilan kelishib, mahalliy aholi vakillarini ushbu volostъ hududida joylashgan 100 tanob yerida majburan ishlatib kelgan. Majburiy mehnatdan bosh tortganlar Qaynar volosti boshqaruvchisi huzuriga yuborilgan. U esa o‘z navbatida bu kishilarni qamab qo‘yib, keyinchalik ma'lum to‘lov evaziga ozodlikka chiqargan.

Aravon volostida yashovchi Jo‘raboy Toshmatboyev, Boymat Xolmatov va jami 5 kishidan iborat aholi vakillarining guvohlik berishlaricha, pristav Klasovskiy ularni o‘ziga tegishli yerlarga tekinga mahalliy o‘g‘it tashishga doimiy ravishda majburlab kelgan. Bundan tashqari ushbu shaxslardan urush ehtiyojlari bahonasida pul va oziq-ovqat mahsulotlari undirilgan. Qisqa muddat ichida pristav aholidan 1000 rubl pul, 100 sarjin o‘tin, beda va arpa yig‘ib olgan[8].

Mustamlaka ma'muriyatining o‘lkani boshqarishdagi zo‘ravonligi va jabr-zulmi chegara bilmagan. Rossiya imperiyasi ma'murlarining Turkiston xalqlariga nisbatan tahqirlash usullari, talonchilik va zo‘ravonliklari, noqonuniy jazo choralari tinimsiz o‘sib borgan. Misol uchun, yuqori lavozimdagi amaldor S.Petrov volost boshqaruvchilari va oqsoqollar hamrohligida Isfara uyezdiga keladi. Bu yerda u hech qanday asossiz va izohlarsiz mahalliy aholiga tegishli teraklarni zo‘ravonlik bilan tortib oladi. Ma'murlarning bu o‘zboshimchaligiga qarshi mahalliy aholi tomonidan qarshilik ko‘rsatilganda esa qarshilik ko‘rsatgan bir necha mahalliy aholi vakillari mustamlakachilar tomonidan o‘ldirilgan. Ushbu manfur voqeadan so‘ng volost boshlig‘i va mingboshi turli tahdid va qo‘rqitishlar orqali o‘ldirilgan kishilarning otanalari va qarindoshlaridan shikoyat arizasi bilan murojaat etmaslik haqida tilxat olishgan .

Qator arxiv hujjatlari, manbalar va adabiyotlar tahlilidan kelib chiqib mustamlaka hukmron doiralari Turkiston o‘lkasida harbiy-ma'muriy, siyosiy, iqtisodiy va g‘oyaviy hukmronlikni ta'minlash maqsadida eng avvalo, boshqaruvni qayta tashkil etish, ya'ni milliy qadriyatlarga asoslangan davlat boshqaruvi o‘rniga o‘z-o‘zini mablag‘ bilan ta'minlovchi samarali va kuchli bo‘lgan yangi mustamlaka ma'muriy boshqaruv tizimini yaratish hamda yerlarini davlat mulki deb e'lon qilish orqali mahalliy aholining yerdan foydalanish huquqini cheklash, metropoliyadan

ortiqcha aholini ko‘chirib keltirish maqsadida bo‘sh yerlar zahirasini shakllantirishga qaratilgan. Shuningdek, o‘lka xalqlarining milliy-ma'naviy qadriyatlarini tiklashga, milliy davlatchilikni vujudga keltirishga bo‘lgan intilishlarini so‘ndirish uchun maktab, madrasa va ulamolar faoliyatini cheklash, ularni doimiy nazorat ostida ushlab turish, o‘sib kelayotgan mahalliy yoshlarni mustamlakachilik siyosatiga ko‘niktirish, ularni mazkur siyosatga nisbatan xayrixohlik ruhida tarbiyalash ko‘zda tutilgan edi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘z MA. 90-fond, 1-ro‘uxat, 1-ish, 2-varaq.
2. Ежегодник Ферганской области. – Выпуск 1903.– Новый Маргелань. 1903. – Том II. – С. 23.
3. Статистические обзор Ферганской области за 1904 год. – Новый Маргелань. 1905. – С .34..
4. Дева Е.А. и др. Формирование рабочего класса в дореволюционном Узбекистане. – Ташкент: Фан, – С.138.
5. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Туркистон чор Россияси мустамлакачилиги даврида. – Тошкент: Шарқ, 2000. – Б.228
6. Тухтабеков К.А. // Чор Россиясининг Биринчи жаҳон уруши йилларида Туркистон ўлкасида ўтказган иқтисодий сиёсатининг мустамлакачилик моҳияти. Дисс... – Т.: 2011.
7. Тухтабеков К.А. Ўша жойда.
8. Тухтабеков К.А. Ўша жойда.